

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Ixtisodiyot va turizm fakultet dekanı

N.S.Ibragimov
2025-yil



**60412400 Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lif
yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon**

DASTURI


Ixtisoslik fanlari:

- 3.03 - "Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish"**
- 3.05 - "Qishloq xo'jaligi menejmenti"**
- 3.09- "Qishloq xo'jaligida korporativ boshqaruv"**

ANNOTATSIYA

Iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiyalash sharoitida mehnatni tashkil etish, mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish muammolarini o'rganish, iqtisodiy mushohada qilish usullari bilan qurollantirish, iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini mantiqiy mushohada qilish uchun bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashiga ko'maklashish, ular ongiga milliy istiqlol g'oyasini va milliy mafkuraning asosiy qoidalarini singdirish, xozirgi zamон rivojlangan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning dolzarb muammolarini olib berish, global iqtisodiy rivojlanish bo'yicha bilimlarning nazariy asoslarini, global iqtisodiyotning asosiy tushunchalarini va kategoriyalarini, global darajada amal qiluvchi iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:	 PhD., dotsent Turobova H.R
	 PhD., dotsent Kadirova M.M.
	 Katta o'qituvchi Boltayeva Sh.Sh.

Taqrizchilar:	 i.f.n., dotsent Oripov M.A.
	 i.f.n., dotsent Boboyev A.Ch.

Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

202__ yil ____ dagi ____ -sonli bayonnomma

KIRISH

Kishilik jamiyatining tovar-pul munosabatlari mavjud bo'lgan har bir ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichda moliya munosabatlari iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib jamiyatning rivojlanib berishda muhim o'rinni egallab kelgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar moliya tizimida ham keskin o'zgartirishlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yanada rivojlantirish, hozirgi davr o'zgarishlariga har tomonlama javob beradigan barqaror va mustahqam iqtisodiyotni qaror toptirish maqsadida, "O'zbek modeli"da belgilab berilgan besh tamoyilning mantiqiy davomi sifatida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaga asosan quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindir:

- ❖ Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari;
- ❖ Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari;
- ❖ Iqtisodiyoti rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari;
- ❖ Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- ❖ Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

"Harakatlar strategiyasi"da belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishda ushbu fan alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi iqtisodiy jarayonlarning eng qizg'in davrida moliya munosabatlarining mazmuni va ahamiyati ortib bormoqda. Bu munosabatlarni o'rganadigan iqtisod-moliyaviy fanlarning ham ahamiyati kuchayib bormoqda.

Iqtisodiyotdagi jadal o'zgarishlar, yuzaga kelgan demografik vaziyat, ro'y berayotgan globallashuv o'zgarishlar o'z navbatida insonning jamiyatdagи holati o'zgarishiga ham olib kelmoqda. Fanga asoslangan yangi ilmiy bilimlar ishlab chiqaruvchi kuchga aylanmoqda. Korxonalarda hal qiluvchi darajadagi zarur ijodiy shaxslar borligi firmalar iqtisodiyotining asosi bo'lib qolmoqda. Ishlab chiqarishning ilmtalabligi, uning intellektual va innovatsion ko'rinishda namoyon bo'lishi hozirgi sharoitda jamiyat yangilanishining ob'ektiv ehtiyojlari yangi turdag'i xodim va ish beruvchining shakllanishiga ko'maklashmoqda. Bu narsa o'z navbatida mehnat jarayonini boshqarishga yangicha yondashuvlar qo'llanishini taqozo etmoqda.

**5233300- Agrobiznes va inestision faoliyat ta'lif
yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan
Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma ishlarini
BAHOLASH MEZONLARI**

Yozma ish Yozma ish uchun 4 tadan savol tuziladi va har bir savolga “0” ballidan “25” ballgacha baholanadi.	20- 25- ball	Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo'lishi lozim. Uni ilmiy asoslagan holda ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, imloviy xatosiz yoritib berishi hamda shu sovollarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo'llay bilihi kerak. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga maksimal 100 ball (4x25 ball) qo'yiladi. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsya etiladi (har bir savol uchun): 20-25 ball uchun talabaning bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim: xulosa va qaror qabul qilish: ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish: bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish. • mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish.	Umumiy ball - 100 ball
	15-20 ball	Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savol to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lishi lozim. Savolni mohiyatini tushungan holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan ilmiy ma'lumotlarni o'zaro taqqoshga qynaladi, xulosalar yakuniga yetmagan. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 20 ball (5x4 ball) qo'yiladi. 15-20-ball ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; • mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish.	86-100-ball. A'llo, (86-100 %).
	10-15 ball	Talaba yozma ishdagi 4 ta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo'lishi, qisman bilishi hisobga olinadi. Ilmiy ma'lumotlarni qisman yozilgan, bu ma'lumotlarni asosida mustaqil fikr va xulosalar yurita olmaydi. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 15 ball qo'yiladi. 10-15-ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	71-85-ball. yaxshi (71-85 %).
	5-10- ball	Talaba 4-ta savolning mohiyatini qisman tushunsa, ilmiy ma'lumotlarni yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa. Mustaqil fikr va xulosalar yoritilmagan bo'lsa, yozma ishga jami 10 ball qo'yiladi.	55-70-ball. Qoniqarli, (55-70 %)

0-5 ball	Talaba 4-ta savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ma'lumotlarni asosida mustaqil fikr yurita olmasa, yozma ishga jami 5 ball qo'yiladi.
-------------	---

“Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish” fanidan

Davlat attestatsiya sinovi uchun dastur

1-mavzu. “Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish” fanining predmeti, o'r ganish usullari va vazifalari.

Qishloq xo'jaligining respublika ijtimoiy iqtisodiyotida tutgan o'mi va ahamiyati. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish yo'llari. “Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish” fanining predmeti, maqsadi, usullari va vazifalari. Fanning boshqa fanlar bilan o'zar bog'liqligi. Agrobiznes tushunchasi. Agrobiznesni tashkil etish zaruriyati.

2-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni.

Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'mi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari. Tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshkarishning xorij tajribasi.

3-mavzu. Arobiznes korxonalari faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Agrobiznes korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarni belgilovchi me'yoriy huquqiy hujjatlar. Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy asoslari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Dehqon tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Agrofirmalarni tashkil etish. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish va boshqarish asoslari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni qishloq xujaligini rivojlanishidagi axamiyati. Bosh tarmoq, yordamchi tarmoq hamda qo'shimcha tarmoqlarni rivojlantirish. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni hududlarda axoli bandligini ta'minlashdagi roli. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri.

4-mavzu. Agroklasterlarni tashkil etish va boshqarish

Agroklaster tushunchasi va axamiyati. Agroklasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Agroklasterlarni belgilovchi me'yoriy huquqiy hujjatlar. Agroklasterlarni tashkil etish. Agroklasterlarni axoli bandligini ta'minlashdagi roli. Agroklasterlarni tashkil etishda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri. Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va boshqarish. Meva-sabzavot klasterlarini tashkil etish va boshqarish. Sholichilik klasterlarini tashkil etish va boshqarish. Kartoshkachilik klasterlarini tashkil etish va boshqarish.

5-mavzu. Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari

Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'grisida"da, "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida", "Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida", "Fermer, dexxon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'grisida"gi kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi.

6-mavzu. Agrobiznes muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar

Tadbirkorlik muhiti. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar. Tadbirkorlik faoliyatidagi tashqi omillar, Tadbirkorlik faoliyatidagi ichki omillar. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillalarning o'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyati rivojiga ta'sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar.

7-mavzu. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi va vazifalari. Qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyat turlari va rag'batlantirish usullari. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari va uni amalga oshirish. Tadbirkorni qo'llab quvvatlash va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali agrobiznesni tashkil etishni rivojlantirish.

8-mavzu. Agrobiznesda kooperatsiyaviy munosabatlarni rivojlantirish

Agrobiznesda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning mohiyati, o'mi va axamiyati. Kooperatsiya tushunchasi, turlari. Kooperatsiyaning faoliyat turiga qarab turlanishi va xususiyatlari. Kooperatsiyaning faoliyat ko'lamiga qarab turlanishi. Kooperatsiyani rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Agrobiznesda kooperatsiyalarni rivojlantirish. Xorij mamlakatlarida kooperatsiya munosabatlari. Kooperatsiyaviy munosabatlarni shakllantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi. Agrobiznesda xalqaro kooperatsiya munosabatlaridan foydalanish samaradorligi.

9-mavzu. Agrobiznesda ishlab chiqarishni joylashtirish, ixtisoslashtirish va integratsiya jarayonlari

Agrobiznesda ishlab chiqarishni joylashtirishning mohiyati. Ixtisoslashuvning iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi. Ixtisoslashtirishning iqtisodiy axamiyati. Joylashtirish va ixtisoslashtirish tamoyillari. Ixtisoslashtirish turlari. Ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari. Integratsiya tushunchasi. Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati. Gorizontal integratsiya. Vertikal integratsiya. Agrosanoat integratsiyasida sinergetik samaradorlik.

10-mavzu. Agrobiznesda yer va suv resurslaridan foydalanishni tashkil etish va boshqarish

Yer qishloq xo'jaligining asosiy vositasi sifatida. Qishloq xo'jaligida yer resurslari va uning o'ziga xos xususiyatlari. Yer unumdorligi va uni oshirish yo'llari. Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Yer resurslaridan ratsional foydalanish va tuproq unumdorligini oshirib borish, almashlab ekishni joriy etish. Agrotexnika tadbirlarini samarali amalga oshirish.

Suv resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Suv resurslari va suv manbapari haqida tushuncha. Qishloq xo'jaligiga suv yetkazib beruvchi SIUning faoliyati. Agrobiznesda sug'orish va suv resurslaridan foydalanish yo'llari. Suvdan foydalanishda tejamkor texnologiyalar va uni amaliyotga joriy etish yo'llari. Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari. Suv ob'ektlari, suv manbalari va suvni iste'molchilariga suvni yetkazib berishni tashkil etish.

11-mavzu. Agrobiznesda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarish

Agrobiznesda ishlab chiqarish resurslari haqida tushuncha va ularni klassifikasiyasi. Ishlab chiqarish resurslarini agrobiznesda o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy fond haqida tushuncha va uning iqtisodiy mazmuni.

Agrobiznes korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarish. Fond bilan ta'minlash ko'rsatkichlari. Fondning jismoniy va ma'naviy eskirishi. Asosiy ishlab chiqarish vositalarining amortizasiyasi. Agrar tarmoqda aylanma fondlar va aylanma mablag'lardan foydalanish yo'llari. Aylanma vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Aylanma vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.

12-mavzu. Agrobiznesda mexnat resurslari va uidan samarali foydalanishni tashkil etish

Agrar tarmoqda mehnat va uning turlari. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish. Agrobiznesda mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi. Mehnat unumidorligi. Mehnat unumidorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi. Mexnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash. Agrobiznesda mexnat unumidorligi ya uni oshirish yullari. Agrobiznesda mexnat motivasiyasi va xodimlarni modsiy ragbatlantirish.

13-mavzu. Agrobiznesda investision faoliyatni tashkil etish

Investisiya tushunchasi, turlari, iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Agrobiznesni rivojlantirishda investisiyalar va ularning zaruriyati. Investision faoliyatning huquqiy asoslari. Investisiyadan foydalanish yo'llari. Agrobiznesga investisiyalarni jalb etishning manbalari va hozirgi holati. Agrobiznesda investisiyalardan foydalanish samaradorligi.

14-mavzu. Agrobiznesda innovasion faoliyatni tashkil etish

Innovatsiya tushunchasi va turlari. Qishloq xo'jaligida innovasion faoliyat. Agrobiznesda innovasiyalarni tarqatish tizimi. Agrobiznesda innovasion faoliyat tashkil etishda xorijiy tajribalari. Dexkonchilikda innovasion texnolgiyalarni qo'llash. Chorvachilikda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Agrobiznesda innovasion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi.

15-mavzu. Agrobiznesda ishlab chiqarishni rejalashtirish

Rejalashtirish tushunchasi. Biznes va biznes-reja tushunchasi. Agrobiznesda ishlab chiqarishni rejalashtirish tizimi va uslublari. Biznes-reja tuzish maqsadi va vazifalari. Biznes-reja turlari. Agrobiznes korxonasining biznes-rejasi. Korxona maxsulotini tavsiflash. Marketing rejasi. Biznes rejaning ishlab chiqarish rejasi. Tashkiliy reja va menejment. Korxonaning moliyaviy rejasi.

16-mavzu. Agrobiznesda ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi

Ishlab chiqarishning samaradorlik mohiyati. Samara va samaradorlik tushunchasi, ko'rsatkichlari. Korxona foydasi tushunchasi, turlari va hisoblash tartibi. Tarmoq iqtisodiy samaradorligi, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni aniqqlash tartibi. Foydani maksimallashtirish.

Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar maxsuloti haqida tushuncha. Yalpi mahsulotning miqdor va qiymat ko'rsatkichlari. Yalpi mahsulot taqsimlanishi. Yalpi maxsulotning tarkibi. Qishloq xo'jalik maxsulotlarining tovarlilik darajasi. Yalpi maxsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari. Yalpi maxsulotini ko'paytirishning ekstensiv va intensiv yullari.

17-mavzu. Agrobiznesda boshkaruv asoslari

Boshkaruv va menejment haqida tushuncha. Ishlab chiqarishni tashkil etishda inson faoliyatini boshqarish zaruriyati va ahamiyati. Zamonaliv ishlab chiqarish tizimida menejmentni roli. Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejmentni maqsadi va vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar. Menejment qonunlar. Iqtisodiy qonunlar, umumiylar falsafiy qonunlar. Menejmentning asosiy tamoyillari, boshqaruvda yakkaboshchilik tamoyili, ilmiylit tamoyili, rejalilik tamoyili, boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirib borish tamoyili, kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili, shaxsiy tashabbus tamoyili, javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili va ularni agrobiznesda qo'llash.

18-mavzu. Boshkaruv qarorlari va funksiyalari

Boshkaruv qarorlari va ularga qo'yiladigan talablar, boshkaruv qarorlari tasnifi, qarorlarni ishlab chiqish va uni qabul qilish, boshkaruv qarorlarining ijrosi va nazorati. Agrobiznesda boshkaruv qarorlarni qabul qilish bo'yicha xalqaro tajribalar. Agrobiznes korxonalarida boshkaruv qarorlarni qabul qilish. Menejmentda boshkaruv qarorlarni qabul qilish bosqichlari va davrlari. Boshkaruvning rejalashtirish funksiyasi, tashkil etish funksiyasi, muvosifqlashtirish va tartibga solish funksiyasi, nazorat funksiyasi.

19-mavzu. Boshqaruv madaniyati va uslubi

Boshqaruv va boshqaruv madaniyati tushunchasi, boshqaruv madaniyatining asosiy elementlari, boshqaruv xodimlari madaniyati, boshqaruv jarayonlarida madaniyat, mehmat sharoiti madaniyati, hujjatlarni rasmiylashtirish madaniyati. Boshqaruv uslubi tushunchasi va xususiyatlari, agrobiznes korxonalarini boshkarish uslublari. Bevosita va bilvosita boshqarish uslubi.

20-mavzu. Agrobiznesda tavakkalchilikni boshqarish

Tavakkalchilik tushunchasi va uni keltirib chiqaruvchi omillar. Tavakkalchilik va xavf turlari. Tavakkalchilikda sug'urta bilan bogliq bo'lgan va bogliq bo'lmanan xavflar. Xavf turlari va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish usullari. Qishloq xo'jaligida tavakkalchilik turlari. Qishloq xo'jaligida tavakkalchilikni boshqarish. Tavakkalchilik samaradorligiga baho berish

Asosiy adabiyotlar

1. H.R.Turobova. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. I qism. O'quv qo'llanma. Buxoro. Durdona nashriyoti. 2021 yil. 200 bet.
2. Hamroyev H.R. Tadbirkorlik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Yangi nashr" nashriyoti. 2010 yil. 356 bet.
3. F.Galimoa, N. Dehqonova, G. Norinboyeva. Darslik. Qishloq xo'jaligida menejment. Toshkent. Innovatsiya -Ziyo. 2020. 270 bet.
4. A.Toshboyev. Agrobiznesda ish yuritish. Darslik. Toshkent. Shafoat Nur Fayz. 2020. 472 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Turobova H.R. Agrobiznesni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari// J. Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar. T.: 2021 y. №3.www.iqtisodiyot.uz.
- 2 Организация агробизнеса: Краткий курс лекций / Сост. М.Ю.Руднев. - Саратов. - 2017. - 77 с
15. Фермерлик фаолиятининг хукукий ва иктисодий асослари. - Т.: Алишер Навоий номидаги Узбекистон Миллий кутубхонаси

нашриёти.2007.

- 240 б.

3. Назимов С., Эшонхужаев Д. Кишлок хужалигига менежмент. Наманган, 2001.
4. Михалев С.В., Галиева Р.И. Основы организации агробизнеса: учебное пособие. Иркутск: ГБПОУ "Иркутский аграрный техникум", 2015. - 189 с.
5. 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.

"AGROBIZNESNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH"

FANIDAN YADA NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jaligining respublika ijtimoiy iqtisodiyotida tutgan o'mi va ahamiyati.
2. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish yo'llari.
3. "Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish" fanining predmeti, maqsadi, usullari va vazifalari.
4. Fanning boshqa fanlar bilan o'zarob bog'liqligi.
5. Agrobiznes tushunchasi. Agrobiznesni tashkil etish zaruriyati.
6. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni.
7. Tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni.
9. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari.
10. Tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshkarishning xorij tajribasi.
11. Agrobiznes korxonalarini faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini belgilovchi me'yoriy huquqiy hujjatlari.
12. Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy asoslari.
13. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Dehqon xo'jaligi faoliyatini tashkiliy asoslari.

14. Agrofirmalarni tashkil etish. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish va boshqarish asoslari.
15. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni qishloq xujaligini rivojlantishidagi axamiyati.
16. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni hududlarda axoli bandligini ta'minlashdagi roli.
17. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri.
18. Agroklaster tushunchasi va axamiyati. Agroklasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
19. Agroklasterlarni belgilovchi me'yoriy huquqiy hujjatlar. Agroklasterlarni tashkil etish.
20. Agroklasterlarni axoli bandligini ta'minlashdagi roli. Agroklasterlarni tashkil etishda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri.
21. Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va boshqarish. Mevasabzavot klasterlarini tashkil etish va boshqarish.
22. Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari.
23. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi.
24. Tadbirkorlik muhiti. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar.
25. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillalarning o'ziga xos xususiyatlari.
26. Tadbirkorlik faoliyati rivojiga ta'sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar.
27. Tadbirkorlikni davlat tamonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi va vazifalari.
28. Qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini davlat tamonidan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyat turlari va rag'batlantirish usullari.
29. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari va uni amalga oshirish.
30. Tadbirkorni qo'llab quvvatlash va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali agrobiznesni tashkil etishni rivojlantirish.
31. Tadbirkorlikni davlat tamonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi va vazifalari.
32. Qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini davlat tamonidan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyat turlari va rag'batlantirish usullari.
33. Tadbirkorni qo'llab quvvatlash va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali agrobiznesni tashkil etishni rivojlantirish.
34. Agrobiznesda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning mohiyati, o'mi va axamiyati.
35. Kooperatsiya tushunchasi, turlari. Kooperatsiyaning faoliyat turiga qarab turlanishi va xususiyatlari.
36. Kooperatsiyaning faoliyat ko'lamiga qarab turlanishi.
37. Kooperatsiyani rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari.
38. Xorij mamlakatlarda kooperatsiya munosabatlari. Kooperatsiyaviy munosabatlarni shakllantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi.
39. Agrobiznesda xalqaro kooperatsiya munosabatlaridan foydalanish samaradorligi.
40. Agrobiznesda ishlab chiqarishni joylashtirishning mohiyati. Ixtisoslashuvning iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi.
41. Ixtisoslashtirishning iqtisodiy axamiyati. Joylashtirish va ixtisoslashtirish tamoyillari.
42. Ixtisoslashtirish turlari. Ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari.
43. Integratsiya tushunchasi. Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati. Gorizontal integratsiya. Vertikal integratsiya. Agrosanoat integratsiyasida sinergetik samaradorlik.
44. Yer qishloq xo'jaligining asosiy vositasi sifatida. Qishloq xo'jaligida yer resurslari va uning o'ziga xos xususiyatlari.
45. Yer unumdorligi va uni oshirish yo'llari. Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.
46. Suv resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
47. Suv resurslari va suv manbapari haqida tushuncha. Qishloq xo'jaligiga suv yetkazib beruvchi SIUning faoliyati.
48. Agrobiznesda sug'orish va suv resurslaridan foydalanish yo'llari. Suvdan foydalanishda tejamkor texnologiyalar va uni amaliyotga joriy etish yo'llari.
49. Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari.
50. Suv ob'ektlari, suv manbalari va suvni iste'molchilariga suvni yetkazib berishni tashkil etish.
51. Agrobiznesda ishlab chikarish resurslari haqida tushuncha va ularni klassifikasiyasi.
52. Ishlab chiqarish resurslarini agrobiznesda o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy fond haqida tushuncha va uning iqtisodiy mazmuni.
53. Agrobiznes korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarish.
54. Asosiy ishlab chiqarish vositalarining amortizasiysi.
55. Agrar tarmoqda aylanma fondlar va aylanma mablag'lardan foydalanish yo'llari.
56. Aylanma vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Aylanma vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.

- 57.Agrar tarmoqda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish.
- 58.Agrobiznesda mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi.
- 59.Mehnat unumdarligi. Mehnat unumdarligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
- 60.Mexnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash. Agrobiznesda mexnat unumdarligi va uni oshirish yullari.
- 61.Agrobiznesda mexnat motivasiyasi va xodimlarni moddiy ragbatlantirish.
- 62.Investisiya tushunchasi, turlari, iqtisodiy mazmuni va ahamiyati.
- 63.Agrobiznesni rivojlanтирishda investisiyalar va ularning zaruriyati.
- 64.Investision faoliyatning huquqiy asoslari.
- 65.Agrobiznesga investisiyalarni jalb etishning manbalari va hozirgi holati.
- 66.Agrobiznesda investisiyalardan foydalanish samaradorligi.
- 67.Innovatsiya tushunchasi va turlari. Qishloq xo'jaligida innovation faoliyat.
- 68.Agrobiznesda innovation faoliyat tashkil etishda xorijiy tajribalari.
- 69.Dekonchilikda innovation texnolgiyalarni qo'llash.
- 70.Chorvachilikda innovation texnologiyalarni qo'llash.
- 71.Agrobiznesda innovation texnologiyalarni qo'llash samaradorligi.
- 72.Rejalshtirish tushunchasi. Biznes va biznes-reja tushunchasi.
- 73.Biznes-reja tuzish maqsadi va vazifalari. Biznes-reja turlari.
- 74.Agrobiznes korxonasining biznes-rejası.
- 75.Korxona maxsulotini tavsiflash. Marketing rejasi.
- 76.Biznes rejaning ishlab chiqarish rejasi.
- 77.Ishlab chiqarishning samaradorlik mohiyati. Samara va samaradorlik tushunchasi, ko'rsatkichlari.
- 78.Korxona foydasi tushunchasi, turlari va hisoblash tartibi.
- 79.Tarmoq iqtisodiy samaradorligi, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni aniqlash tartibi. Foydani maksimallashtirish.
- 80.Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar maxsuloti haqida tushuncha. Yalpi mahsulotning miqdor va qiymat ko'rsatkichlari.
- 81.Yalpi mahsulot taqsimlanishi. Yalpi maxsulotning tarkibi.
- 82.Boshqaruv va menejment haqida tushuncha.
- 83.Ishlab chiqarishni tashkil etishda inson faoliyatini boshqarish zaruriyati va ahamiyati.
- 84.Zamonaviy ishlab chiqarish tizimida menejmentni roli.
- 85.Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejmentni maqsadi va vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.
- 86.Menejment qonunları. Iqtisodiy qonunlar, umumiyl falsafiy qonunlar.
- 87.Menejmentning asosiy tamoyillari,
- 88.Boshqaruv va boshqaruv madaniyati tushunchasi.
- 89.Boshqaruv madaniyatining asosiy elementlari,
- 90.Boshqaruv uslubi tushunchasi va xususiyatlari, agrobiznes korxonalarini boshkarish uslublari.

- 91.Tavakkalchilik tushunchasi va uni keltirib chiqaruvchi omillar.
- 92.Tavakkalchilik va xavf turlari. Tavakkalchilikda sug'urta bilan bogliq bo'lgan va bogliq; bo'limgan xavflar.
- 93.Xavf turlari va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish usullari. Qishloq xo'jaligida tavakkalchilik turlari.
- 94.Qishloq xo'jaligida tavakkalchilikni boshqarish.

**"Qishloq xo'jaligi menejmenti" fanidan
Davlat attestatsiya sinovi uchun dastur**

1-mavzu. Qishloq xo'jaligi menejmenti fanining predmeti, maqsadi va o'rganish usullari

Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotda tutgan o'mi va ahamiyati. Menejment tushunchasi va nazariy asoslari. Qishloq xo'jaligi menejmenti fanining mohiyati va mazmuni. Qishloq xo'jaligi menejmenti fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar. Menejmentning ob'ekti va sub'ekti ulaming o'zaro aloqadorligi. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Qishloq xo'jaligi menejmenti fanining o'rganish usullari.

2-mavzu. Qishloq xo'jaligi menejmentida qo'llaniladigan qonunlar, tamoyillar va funksiyalar

Menejment qonunları. Menejmentning asosiy tamoyillari. Qishloq xo'jaligi menejmenti funksiyalarining tavsifi, mohiyati, mazmuni. Menejmentni asosiy funksiyalarining tarkibiy tuzilishi. Boshqaruvning rejalshtirish funksiyasi, tashkil etish funksiyasi, muvofiqlashtirish va tartibga solish funksiyasi, nazorat funksiyasi.

3-mavzu. Qishloq xo'jaligida boshqaruv qarorlari va usullari

Qishloq xo'jaligida boshqaruv qarorlari va ularga qo'yiladigan talablar, boshqaruv qarorlari tasnifi, qarorlami ishlab chiqish va uni qabul qilish, boshqaruv qarorlarining ijrosi va nazorati. Qishloq xo'jalik korxonalarida boshqaruv qarorlami qabul qilish. Qishloq xo'jaligida boshqaruv usullari to'g'risida tushuncha. Boshqaruvning tashkiliy-ma'muriy usullari. Boshqarishning iqtisodiy usullari. Boshqarishning sotsial-ruhiy usullari.

4-mavzu. Qishloq xo'jaligida menejment madaniyati va uslubi

Qishloq xo'jaligi menejmenti madaniyati tushunchasi. Menejment madaniyati va uning asosiy elementlari, boshqarish xodimlari madaniyati.

boshqaruv jarayonlari madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati, hujjatlarni rasmiylashtirish madaniyati.

5-mavzu. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini belgilovchi normativ-huquqiy baza. Fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Dehqon xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari. Agrofirma faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari. Agroklasterlami rivojlantirish yo'naliishlari.

6-mavzu. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanishni boshqarish

Yer resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, ulaming o'chami, tarkibi, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi. Yerdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ulami aniqlash tartibi. Yerdan foydalanish samaradorligi, uni oshirish yo'llari. Yer resurslari va ulardan foydalanishni boshqarish xususiyatlari.

Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishni boshqarish. Qishloq xo'jaligida suv iste'molchilari uyushmasi, uning vazifalari va ular faoliyatini boshqarishni takomillashtirish yomllari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari suv resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish.

7- mavzu. Qishloq xo'jaligida moddiy-texnik resurslaridan foydalanishni boshqarish

Moddiy-texnika resurslari tushunchasi va ulami qishloq xo'jaligida o'ziga xos xususiyatlari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasini shakllantirish. Innovatsiyaviy texnika va texnologiyalarni fermer xo'jaliklarda keng ko'mlashning samaradorligi. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ulami aniqlash tartibi. Asosiy va aylanma vositalardan samarali foydalanish yo'naliishlari.

8-mavzu. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonlarini boshqarish

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari. Fermer xo'jaliklarda mehnat jarayonlarini boshqarish. Boshqaruvchining mehnati, uning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari. Mehnatni tashkil etish tamoyillari. Mehnatga xaq to'lash va rag'batlantirishni takomillashtirish yo'llari. Qishloq xo'jaligida rahbar xodintlaming boshqaruv mehnatini baholash, boshqaruv mehnatini tashkil etishning asosiy yo'naliishlari.

9-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini boshqarish

Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va mahsulot tannarxi. Mahsulot tannarxi turlari. Mahsulot tannarxi elementlari. Qishloq xo'jaligi maxsuloti tannarxini rejalashtirish va xisoblash yo'llari. Mahsulot tannarxini

pasaytirishning imkoniyatlari va omillari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarda mahsulot tannarxini boshqarish.

10-mavzu. Qishloq xo'jaligida infratuzilina sohalarini boshqarish

Infratuzilmaning mohiyati, ahamiyati va asosiy elementlaridishlab chiqarish infratuzilmasining qishloq xo'jaligida tutgan o'mri. Ijtimoiy infratuzilma va uning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdag'i roli. Bozor infratuzilmasi tushunchasi va tarkibi. Qishloqda zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish.

11-mavzu. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy asoslari

Ishlab chiqarishni ekstensiv va intesiv rivojlantirishning mohiyati. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy omillari. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning ko'rsatkichlari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yodlari.

12-mavzu. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni tashkil etish

Shartnomani tuzish asoslari va ularga oid qonun hujjalari: fermer xo'jaligida shartnoma turlari, korxona boshqaruvida shartnomaning roli, kontraktatsiya shartnomasini rasmiylashtirish xususiyatlari. Shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy hujjalar. Tayyorlov korxonalar bilan o'zaro munosabatlar. Moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan o'zaro munosabatlar. Shartnomalaming bajarilishida tomonlarning (mulkiy) javobgarligi.

13-mavzu. O'simlikchilik tarmoqlari boshqaruvi

